

## VII. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko‘rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 539- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning **vazona davlat registri bazasi** vuritiladi.

Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida, 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

### Korxona va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)  
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)




#### Yuridik shaxs:


Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

## Ro‘yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, (2023- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o‘tgan yilga nisbatan o‘sish surati, savdo (120,6 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (116,1 %), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (117,2 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (117,7 %), tashish va saqlash (115,5 %), qurilish (113,2 %), sanoat (113,0 %), boshqa turdagи xizmatlar (108,3 %) va axborot va aloqa (109,6 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.




### Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (1- yanvar holatiga ko‘ra, ming birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 52 746 tani tashkil yetib, o‘tgan yilning shu davriga solishtirilganda 6 124 taga yoki 113,1 % ga o‘sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 33,0 % savdo, 21,0 % sanoat, 7,5 % qurilish, 5,6 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 4,7 % qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, 3,6 % tashish va saqlash, 2,3 % axborot va aloqa, 2,4 % sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish va 19,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

### **2023- yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va o‘sish surati, %**

*(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz, birlikda)*



## Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*



2023- yil 1- yanvar holatiga 46 601 ta faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxona - 11 882 ta, oilaviy korxona - 6 608 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyat - 27 359 ta, aksiyadorlik jamiyat - 53 ta, unitar korxona - 248 ta va boshqa turdag'i korxonalar - 451 tani tashkil etadi.


### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)*


Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra 28,7 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5,2 mingtaga yoki 121,9 %ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 27,3 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,6 mingtaga yoki 120,0%ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 5 802 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 56 taga yoki 101,0%ga ko‘payganni ko‘rish mumkin.



## Yangi tashkil yetilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni (yanvar-dekabr oylarida)



2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 9 099 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg‘ona shahar (15,6%), Qo‘qon shahar (10,0%), Marg‘ilon shahar (7,1%), Toshloq tumani (5,6%), Buvayda tumani (5,3%), Dang‘ara tumani (5,2%), O‘zbekiston tumani (5,0%), Beshariq tumani (4,8%), Oltiariq tumani (4,8%), Bag‘dod tumani (4,7%), Rishton tumani (4,3%), Farg‘ona tumani (4,2%), Quva tumani (4,2%), Uchko‘prik tumani (4,0%), Quvasoy shahar (3,8%), Qo‘shtepa tumani (3,7%), Furqat tumani (2,9%), Yozyovon tumani (2,4%), So‘x tumani (2,4 %) hissalariga to‘g‘ri keladi.

### Kichik korxona va mikrofirmalar soni


*(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)*



**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha, birlikda)*




**Hududlar bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, birlikda)*




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2023- yil 1- yanvar holatiga ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 610 tani tashkil etdi, bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 65 taga yoki 111,9 %ga o‘sgan.


■ Ro‘yxatdan o‘tgan ■ Faoliyat ko‘rsatayotgan ■ Yangi tashkil etilgan



## Xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital  
ishtirokidagi korxonalarining qo‘shma korxona va xorijiy korxonalarga  
taqsimlanishi (2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)**



**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari  
kesimida taqsimlanishi**  
(1- yanvar holatiga ko‘ra, yillar kesimida, birlikda)

	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
<b>Jami</b>	<b>281</b>	<b>415</b>	<b>455</b>	<b>534</b>	<b>596</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi</b>	9	26	27	29	31
<b>Sanoat</b>	185	240	260	284	308
<b>Qurilish</b>	7	10	15	28	34
<b>Savdo</b>	38	74	81	113	126
<b>Tashish va saqlash</b>	6	12	13	14	17
<b>Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar</b>	11	14	15	14	16
<b>Axborot va aloqa</b>	4	4	4	3	5
<b>Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish</b>	7	9	9	9	11
<b>Boshqa turlar</b>	14	26	31	40	48

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning hududlar kesimida soni

*(2023- yil 1- yanvar holatiga, birlikda)*


	Ro‘yxatga olinganlar	2022- yil yanvar-dekabr		
		yangi tashkil etilgan	tugatilgan	
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>610</b>	<b>78</b>	<b>6</b>	
<i>shaharlar:</i>				
Farg‘ona	191	28	3	
Qo‘qon	75	7	2	
Quvasoy	37	4		
Marg‘ilon	36	7		
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	11	2		
Qo‘shtepa	16	2		
Bag‘dod	13	1		
Buvayda	13	3		
Beshariq	24	2		
Quva	25	1		
Uchko‘prik	14	1		
Rishton	9	2		
So‘x	19			
Toshloq	30	4		
O‘zbekiston	28	4		
Farg‘ona	21	2		
Dang‘ara	13	3		
Furqat	8	2		
Yozyovon	191	28	3	

## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-yanvar holatiga 7 110 tani tashkil etib, ulardan 6 608 tasi yoki 92,9 % faoliyat yuritmoqda.


## **Oilaviy korxonalarining yillar kesimidagi soni**

*(birlikda)*



## **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni,**

*(2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)*



## Oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

*(birlikda)*

	<i>Ro'yxatga olinganlar</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	
		<i>yangi tashkil etilgan</i>	<i>tugatilgan</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>7 110</b>	<b>1 373</b>	<b>295</b>
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	717	121	21
Qo'qon	539	151	24
Quvasoy	321	75	22
Marg'ilon	471	43	18
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	579	100	32
Qo'shtepa	182	20	7
Bag'dod	383	57	14
Buvayda	332	23	9
Beshariq	309	37	7
Quva	258	31	8
Uchko'prik	349	34	9
Rishton	707	163	28
So'x	121	34	9
Toshloq	264	53	12
O'zbekiston	467	122	22
Farg'ona	265	59	13
Dang'ara	461	182	18
Furqat	306	49	7
Yozyovon	79	19	15